

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD 31
2025 yil 99 *avgust*



**TUPROQLAR GEOGRAFIYASI
FANINING O'QUV DASTURI
(kunduzgi)**

Bilim sohasi:	500 000 - Tabiiy fanlar, matematika, statistika
Ta'lim sohasi:	530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530200 – Geografiya

Fan/mavzu kodi TG1204		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tuproqlar geografiyasi	48 (24/24)		72	120
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga Geografiya sohasida kelajakda ishlaydigan yuqori malakali mutaxassisnlarni shakllantirish uchun ahamiyatli bo'lgan Tuproqlar geografiyasi fani sohalari bilan tanishtirishdan olingan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashdan va ularni amaliyotda qo'llashni o'rganishdan iboratdir. Talabalarda tuproqlar sohasida zamonaviy ilmiy dunyo qarashni shakllantirishni yer va undan oqilon afoydalanish, melorativ tadbirlarni va Gidrotexnik inshootlarda foydalanishni bilish, ularni ko'rish va eksplotatsiya qilish ishlarida bajariladigan tuproqlar geografiyasi hamda boshqa usullarning texnikasi bilan tanishtirishni, tadqiqot va qidiruvdan olingan ma'lumotlorni ijodiy qo'llashni o'rganishni masalalariga oid bilimlar berish va o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning oldiga qo'ygan vazifalari - quyidagilardan iborat:</p> <p>tuproqlarning umumiy fizik va fizik-kimyoviy xossalari to'g'risida bilimlar berish;</p> <p>tuproq va tuproq hosil qiluvchi tog' jinslarining mineral va kimyoviy tarkibi to'g'risida bilimlar berish;</p> <p>tuproq hosil qiluvchi tog' jinslarining tuproqlar geografiyasiga ta'siriga oid bilimlar berish;</p> <p>tuproqlar morfologiyasi to'g'risida bilimlar berish;</p> <p>tuproqlar tasnifi haqida bilimlar berish;</p> <p>tuproqlarning zonal tarqalishi to'g'risida bilimlar berish;</p> <p>tog'larda tuproqlarning balandlik mintaqalari qonuniyatlari asosida joylashishiga oid bilimlar berish;</p> <p>O'zbekiston tuproqlari to'g'risida batafsil bilimlar berish;</p> <p>vohalardagi tuproqlarga oid bilimlar berish;</p> <p>tuproq kartalari va ularning ahamiyati haqidagi bilimlar berish;</p> <p>tuproq muhofazasiga oid bilimlar berishdan iboratdir.</p> <p style="text-align: center;">II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-MODUL. Fanning tadqiqot ob'yekti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari, Tuproqlar geografiyasining ahamiyati. O'rganish tarixi.</p> <p style="text-align: center;">Fanning tadqiqot ob'yekti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari.</p> <p style="text-align: center;">Tuproqlarni o'rganish tarixi</p> <p>Fanning tadqiqot ob'yekti. Tuproq to'g'risida tushuncha. Uning tabiiy hosila ekanligi. Tuproqlarni o'rganishning iqtisodiyot uchun muhimligi. Tuproqlarni o'rganish usul (metod)lari. Fanning maqsad va vazifalari. Tabiiy geografik bilim va tadqiqotlar uchun tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasining ahamiyati. V.V.Dokuchayev–tuproq va tuproqlar geografiyasi to'g'risidagi fanning asoschisi ekanligi. Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasiga oid tadqiqotlarning Dokuchayevgacha bo'lgan, Dokuchayev davri, Dokuchayevdan keyingi tadqiqotlar davri. Tuproq – geografik tadqiqotlarning ikkinchi jahon urushigacha, urushdan keyingi va hozirgi davri bosqichlari Yevropa mamlakatlaridagi tadqiqotlar.</p> <p style="text-align: center;">2-MODUL. Giperegenez jarayonlari, Tuproq hosil bo'lishining biologic, iqlim va gidrologik omillari, Tuproq hosil bo'lishida rel'yefning ahamiyati.</p> <p style="text-align: center;">Giperegenez jarayoni va tuproq hosil qiluvchi tog' jinslarining vujudga kelishi</p>				

Gipergenez (nurash) jarayoni. Mineral va tog' jinslari. Fizik, biologik, kimyoviy nurash. Tuproq ona jinsi va tuproqning mexanik tarkibi. Tuproq paydo qiluvchi ona jinslar. Tuproqlarning umumiy fizik va fizik–kimyoviy xususidalari. Tuproq va tuproq hosil qiluvchi jinslarning mineral va kimyoviy tarkibi.

Tuproq hosil bo'lishining biologik omillari va tuproqning organik qismi.

Mikroorganizmlar va tuproqlar geografiyasi, O'simliklarning tuproqlar geografiyasidagi o'рни, Hayvonot olamining tuproqlar geografiyasidagi ahamiyati va tuproqlarning organik qismi.

Tuproq hosil bo'lishida iqlim va gidrologik omillarning o'рни. Tuproq hosil bo'lishida rel'yefning ahamiyati

Tuproq hosil bo'lishida iqlimning bevosita va bilvosita ta'siri. Tuproqning issiqlik tartibi. Tuproqning suv tartibi. Tuproq hosil bo'lishida shamolning roli. Relief yer yuzasida quyosh energiyasi va atmosfera yog'inlarining taqsimotchisi sifatida. Moddalar migrasiyasida reliefning roli. Relief va tuproqlar geografiyasi.

3-MODUL. Tuproqlarning morfologiyasi, tarkibi, tuzilmasi va xossalari, Tuproqlar tasnifi.

Tuproqlarning morfologiyasi, tarkibi, tuzilmasi va xossalari

Tuproqning morfologik belgilari. Tuproq kesmasi va genetik qatlamlar. Tuproqlarning morfologiyasi va kimyoviy tarkibi. Tuproq tuzilmasi. Tuproqning fizik va fizik–mexanik xossalari. Tuproq tuzilmasining paydo bo'lishi. Tuproq tuzilmasining buzilishi (yo'qotilishi), uni tiklash va asrash.

Tuproqlar tasnifi, turlari va tuproq unumdorligi

Tuproqlar tasnifi va tasniflash tamoyillari. Tuproq tashxisi. Tuproq unumdorligi va uning turlari. Tuproq unumdorligini oshirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi.

3-MODUL. Geografik zonallik qonuniyati va tuproq-geografik rayonlashtirish, Arktika, tundra va o'rmon tundra tuproqlari, Boreal va Subboreal, Subtropik, Tropik mintaqa tuproqlari geografiyasi

Geografik zonallik qonuniyati va tuproq-geografik rayonlashtirish

Geografik zonalar to'g'risidagi ta'limot. Tuproqlar geografiyasining umumiy qonuniyatlari. Tuproq – geografik rayonlashtirish.

Arktika, tundra va o'rmon tundra tuproqlari (qutbiy mintaq). Boreal mintaqa tuproqlari geografiyasi. Subboreal mintaqa tuproqlari geografiyasi

Qutbiy mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq zonalar. Arktika tuproqlari zonasi. Subarktikaning tundra gleyli va loyli – gumusli tuproqlari zonasi. Boreal mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Tayga – o'rmon oblasti. O'tloq – o'rmon va muzloq – tayga oblastlari. Subboreal mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Nam qo'ng'ir – o'rmon tuproq oblasti. Qora va kashtan tuproqli o'rmon – dasht hamda dasht oblasti. Och – kashtan, qo'ng'ir chala cho'l va sur – qo'ng'ir cho'l tuproq oblasti.

Subtropik mintaqa tuproqlari geografiyasi. Tropik mintaqa tuproqlari geografiyasi

Subtropik mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Subtropik sernam – o'rmon oblasti. Subtropik kserofit – o'rmon va buta – dasht oblasti. Subtropik chala cho'l va cho'l oblasti. Tropik mintaqaning tabiiy-iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Tropik nam va mavsumiy nam o'rmon oblasti. Tropik kserofit – o'rmon va savanna oblasti. Tropik chala cho'l va cho'l oblasti.

4-MODUL. O'zbekiston tuproqlari geografiyasi, Tuproq kartalari, yer kadastri va tuproq bonitrovkasi, Tuproqlarning ahamiyati va uni muhofaza qilish.

O'zbekiston tuproqlari geografiyasi

O'zbekistonda tuproqlar geografiyasining rivojlanishi. O'zbekistonning tekislik provinsiyasi tuproqlari geografiyasi. O'zbekistonning tog'oldi va tog' provinsiyasi tuproqlari geografiyasi.

Tuproq kartalari, yer kadastri va tuproq bonitrovkasi hamda yer resurslari

Tuproqni kartalash va tuproq kartalari. O'zbekiston tuproq kartasi. Yer kadastri va tuproq bonitrovkasi. Dunyoning yer resurslari.

Tuproqlarning ahamiyati va uni muhofaza qilish

Tuproqning tabiatdagi roli. Tuproqning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Tuproqni muhofaza qilish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fanning tadqiqot obekti, maqsad-vazifalari va tadqiqot usullarini tahlil qilish; Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasiga oid tadqiqotlar tarixining asosiy davrlari;
2. Gipergenez (nurash) jarayoni va tuproq hosil qiluvchi tog' jinslari;
3. Tuproq hosil bo'lishining biologik omillari va tuproqning organik qismi
4. Tuproq hosil bo'lishida iqlim va gidrologik omillarning o'rni; Tuproq hosil bo'lishida rel'yefning ahamiyati;
5. Tuproqlarning morfologiyasi, tarkibi, tuzilmasi va xossalari
6. Tuproqlarning tasnifi, tashxisi va unumdorligi;
7. Geografik zonallik qonuniyati va tuproq-geografik rayonlashtirish;
8. Arktika, tundra va o'rmon tundra tuproqlari (qutbiy mintaq); Boreal va subboreal mintaq tuproqlari geografiyasi;
9. Tropik va subtropik mintaq tuproqlari geografiyasi;
10. O'zbekiston tuproqlari geografiyasi;
11. Tuproq kartalari, yer kadastri va tuproq bonitrovkasi hamda yer resurslari;
12. Tuproqlarning ahamiyati va uni muhofaza qilish.

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblardan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmiy topshiriq tuzish;
- Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo'q javobli test tuzish;

	<ul style="list-style-type: none"> - Audio dars tayyorlash; - Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish; - Adabiyotlar ro'yxatini tuzish; <p style="text-align: center;">Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. V.V.Dokuchayev-tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasining asoschisi. 2. Tuproq hosil qiluvchi g'ovaksimon nurash mahsulotlari. 3. Organizmlar va tuproq hosil bo'lishi hamda geografiyasi. 4. Tabiat va jamiyat hayotida tuproqning ahamiyati 5. Tuproqlar geografik tarqalishining asosiy qonuniyatlari 6. O'zbekistonda tuproqlar geografiyasining rivojlanishi 7. O'zbekistonning tog' va tog'oldi mintaqasi tuproqlari geografiyasi va uni muhofaza qilish. 8. Tuproq kesmasi va kartasini tuzish. 9. O'zbekistonning balandlik mintaqasi tuproqlari joylashuvi geografiyasi 10. Tuproq boniteti 11. Tuproqlar muhofazasi
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilish kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tuproqlar geografiyasi fanining maqsad va vazifalarini, rivojlanish tarixi, tuproqning tabiat zonalar va balandlik mintaqalari bo'ylab geografik tarqalish qonuniyatlari, tuproq kesmalarini qo'yish, genetik qatlamlarni ajratish, ularni kartada tasvirlash, tuproqlar geografiyasi bo'yicha asosiy shakllari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; (bilim) • Talaba qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lgan tuproqlarning hosil bo'lish jarayoni, rivojlanishi, tarkibi va xossalari hamda ularning geografik tarqalish qonuniyatlari, tuproq kartalarining iqtisodiyotda qo'llash, tahlil qilish va prognoz qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma). • Tuproqlarning mexanik tarkibi, fizik va suv xossalarini mustaqil ravishda aniqlay olish, tuproqlar geografiyasini kartaga tushira olish va ularni tahlil qilish to'g'risida aniq malakalariga ega bo'lishi kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • <i>ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara</i> • <i>interfaol keys-stadilar;</i> • <i>diologik yondoshuv</i> • <i>SWOT tahlili</i> • <i>Wenn diagrammasi</i> • <i>Bliz so'rov</i> • <i>nilufar guli</i> • <i>baliq skleti</i> • <i>kim chaqqon</i> • <i>blis so'rov</i> • <i>blis test va boshqalar</i>
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>

6.	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xodjimatomov A.N., Xolmurodov Sh.A. Tuproqlar geografiyasi T.: Fan va texnologiyalar. 2018. 2. B.S.Kamilov, G.S.Sodiqova Tuproqshunoslik va geologiya asoslari. Darslik. Toshkent 2019 y 3. В.Д.Наумов. География почв. Учебник. Москва. РГАУ-МСХА имени К.А. Тимирязева 2022 <p style="text-align: center;">IX. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b. 3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b. 4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. - 458 b. <p style="text-align: center;">O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida” gi PF - 6108 - son farmoni. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 8. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 9. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali. 10. www.pedagog.uz 11. www.apkpro.ru/content/view 12. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten 13. www.relarn.ru/conf/conf2007 14. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/ 15. http://www.allmath.ru/ 16. http://www.ziyonet.uz/ 17. http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru 18. t.me/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar kanali
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil “ ____ ” _____ -son bayonnomasi bilan ma'qullangan</p>

8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: S.R.Mirzaliyev – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrası assistenti.
9.	Taqrizchilar: F.A.Xamroyeva - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrası dotsenti (ichki) A.X.Ravshanov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Geografiya va ekologiya fakulteti dekani (tashqi)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98 o'rinni egallagan Moskva davlat universitetning Geografiya fakulteti Geografiya yo'nalishi darsligi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

“Tuproqlar geografiyasi” fanining dasturi tayyorlanib 8 ta mavzusi o'xshash bo'lganligi uchun o'zgartirilmadi

https://www.geogr.msu.ru/education/voprog_distc/programs_3xx/buk_G/b_G_fizicheskaya_%20geografiya_%20Rossii_new2023.pdf

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetining 2025-yil 23-apreldagi 2-sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi:

Kafedra mudiri:

Fakultet dekani:

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor:

S.R.Mirzaliyev

F.A.Xamroyeva

Mirzayev

Musulmonov



**Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası assistenti
S.R.Mirzaliyev tomonidan tayyorlangan “Tuproqlar geografiyasi” o‘quv fan
dasturiga**

TAQRIZ

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalaridagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangidan yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Xususan, respublikamizda xorijiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni respublika oliy ta’lim tizimida joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada “Geografiya” fanida ham salmoqli o‘zgarishlar, yangilanishlar ro‘y berdi.

“Tuproqlar geografiyasi” fani geografiya asosiy yo‘nalishining nazariy va amaliy evolutsiya natijasi, ya’ni “Tuproqlar geografiyasi” fanining rivojlanishi uning turli davrlarda umumiy fan sifatida nomining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan: Insoniyat hamma sohalarida bu sohada keng foydalanib kelmoqda. Tuproqlar geografiyasi fani rivojlanishi bevosita ahborot texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda Tuproqlar geografiyasi fani har sohada foydalanilib rivojlantirib kelinmoqda. Ayniqsa hozirgi globallashtirilgan axborot texnologiyalari asrida bu soha yanada rivojlanmoqda. Tuproqlar geografiyasi – geografiya fanlari tizimida inson ho‘jalik faoliyatida bevosita foydalanadigan fan hisoblanadi. Ushbu fanlar qanday nomlanmasin uning mazmun mohiyati ahamiyatliligi o‘zgarmaydi. Shu sababdan bu fanni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Mazkur fan dasturi “Tuproqlar geografiyasi” kursining nazariy asoslarini to‘liq qamrab olgan va har bir mavzu bo‘yicha talabalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar keltirib o‘tilgan bo‘lib, dasturning amaliy mashg‘ulot qismi bakalavrlarning nazariy jihatdan egallagan bilimni amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o‘z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish va o‘tkazish talablariga javob beradi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60530200 – Geografiya yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

**Samarqand davlat pedagogika instituti
“Geografiya” kafedrası mudiri:**



dots. F.A.Xamroyeva

**Samarqand davlat pedagogika instituti “Geografiya” kafedrası assistenti
S.R.Mirzaliyev tomonidan tayyorlangan “Tuproqlar geografiyasi” o‘quv fan
dasturiga**

TAQRIZ

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan yillarda davlatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi islohotlar ta’lim tizimida ham yangidan-yangi izlanishlarni taqozo etmoqda. Xususan, respublikamizda xorijiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni respublika oliy ta’lim tizimiga joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada “Geografiya” fanida ham samarali o‘zgarishlar, yangilanishlar ro‘y bermoqda.

“Tuproqlar geografiyasi” fani geografiya asosiy yo‘nalishining nazariy va amaliy evrilishlar natijasi bo‘lib, uning rivojlanishi turli davrlarda tuproqshunoslik fanining yutuqlari asosida boyib bormoqda. Ushbu fandan tayyorlangan o‘quv fan dasturida tuproq turlarining tarqalish qonuniyatlari, ularning xususiyatlari va inson hayotidagi ahamiyati bo‘yicha zaruriy bilimlar yoritilgan.

Fan dasturida mavzular zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tartibga solingan bo‘lib, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Mavzular ketma-ketligi va amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unligi, talabalarining bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o‘quv rejalariga to‘liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60530200 – Geografiya yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dotsenti



A.X.Ravshanov